



THE SPIRITUAL EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE TRADITIONS OF TEACHER DISCIPLINE IN SUFISISM (On the example of the activities of Mawlana Orif Deggaroni and Bahaiddin Naqshband)

Sardor Kuvonov

Independent researcher

Navoi State University

Navoi, Uzbekistan

E-mail: quvonov2017@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Islam, Sufism, teacher-student, spiritual and moral education, moral education, Sufi, Bahaiddin Naqshband, Mawlana Orif Deggarani, friendship.

Received: 15.03.25

Accepted: 17.03.25

Published: 19.03.25

Abstract: The importance of Sufi scholars in the Islamization of the Central Asian population and the spread of pure Islamic teachings was analyzed using the example of two friends and teacher-disciple Arif Deggarani and Bahaiddin Naqshband. Information was provided about the aspects of the spiritual education of the representatives of the order, and information was provided about the place and role of Arif Deggarani in the creation of the foundations of the Naqshbandi teachings and its wide spread.

TASAVVUFDA USTOZ SHOGIRDLIK, AN'ANALARINING MA'NAVIY TARBIYAVIY AHAMIYATI (Mavlono Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshband faoliyati misolida)

Sardor Quvonov

mustaqil tadqiqotchi

Navoiy davlat universiteti

Navoiy, O'zbekiston

E-mail: quvonov2017@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Islom dini, tasavvuf, ustoz-shogird, ruhiy va ma'naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, sufiy, Bahouddin Naqshband, Mavlono Orif Deggaroniy, do'stlik.

Annotatsiya: O'rta Osiyo aholasining islomlashi va sof islom ta'limotlarining yoyilishida tasavvuf ulamolarining ahamiyati Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshband ikki do'st, hamda ustoz-shogird misolida tahlil qilindi. Tariqat vakillarining ma'naviy tarbiya jihatlari haqida ma'lumotlar berilib, Naqshbandiya ta'limoti asoslarining yaratilishi

va uning keng yoyilishida Orif Deggaroniyning o'zni va roli haqida ma'lumot berilgan.

УЧИТЕЛЬСКАЯ ДИСЦИПЛИНА В СУФИЗМЕ, ТРАДИЦИИ ДУХОВНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ (На примере деятельности Мавланы Арифа Деггарани и Бахауддина Накшбанд)

Сардор Кувонов

Независимый исследователь

Навоийском государственном университете

Навои, Узбекистан

E-mail: quvonov2017@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ислам, суфизм, учитель-ученик, духовно-нравственное воспитание, нравственное воспитание, суфий, Бахауддин Накшбанд, Мавлана Ориф Деггарани, дружба.

Аннотация: На примере двух друзей и учителей-учеников Арифа Деггарани и Бахауддина Накшбанд анализируется роль суфийских ученых в исламизации населения Центральной Азии и распространении чистых исламских учений. Была предоставлена информация об аспектах духовного образования представителей ордена, а также дана информация о месте и роли Арифа Деггарани в создании основ учения Накшбандия и его повсеместном распространении.

Kirish: O'rta asrlar tarixida O'rta Osiyo xalqlari tarixi, islom madaniyatining yorqin beshigi sifatida, dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan. Islom dini, arab sahrolaridan boshlanib, Markaziy Osiyo orqali butun dunyoga tarqaldi va bu yerda gullab-yashnadi. Bu mintaqaning boy ma'naviy merosi, tasavvuf allomalarining beqiyos hikmati bilan yanada boyitildi. Imom al-Buxoriyning sahih hadislar, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband va Najmiddin Kubroviylarning tasavvuf tariqatlari orqali islomning chinakam ma'naviy qiyofasi shakllandi. Ular, o'zlarining ilmiy va ruhiy meroslarini qoldirib, islomning haqiqiy mohiyatini dunyoga namoyish etdilar. O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy hayotida islom dinining chuqur ildiz otishi, milliy madaniyatimizning asosiy qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi. Islomning bu yerda yuksalishi, nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy taraqqiyotga ham kuchli turtki berdi. Bu kabi allomalar faoliyati bilan sharq renesansi uchun o'ziga xos ilmiy muhitni yaratgan bo'lsalar ajabmas. Shu bilan birga, tasavvuf allomalarining merosi, yerlik aholining ongiga chuqur integratsiyalashib, ma'naviyatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Manbalar tahlili: Mustaqillikgacha bo'lgan yillarda va mustaqillikgacha sovet ittifoqi davrida ushbu mavzuda ko'plab o'rganishlar qilindi. Abdurauf Fitrat tadqiqotlariga murojaat

qilinganda. “O’rta Osiyo tasavvufining kubroviya, Yassaviya, naqshbandiya va qalandariya kabi ko‘b oqimlari o‘rinlashgan. Bularning hammasi haqida tafsilot berish hozir mening uchun mumkin emas” [3],-deydi. Buni Fitratning o’sha vaqtlarda sobiq Sho‘rolar hukumati tomonidan ta’qib ostiga olinganligi bilan izohlash mumkin.

Quyi Zarafshon vohasi tasavvuf allomalari faoliyati va ma’naviy meroslarini o‘rganishda ayrim o‘lkashunoslarning ham tadqiqotlari tahlil qilindi. Xususan, A. Hotamov, [4] Sh. Halilov, N. Bekniyozov [5] va S. Mustafoevlarning [9] risolalarida tasavvuf Shayxlarning ma’naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, hayoti va ijodi kengroq ochib berishga harakat qilingan bo‘lsa-da, ammo ushbu tadqiqotlar ko‘proq badiiy publitsistik harakterga ega ekanligi bilan karakterlanadi.

E.Rustamov, M.A.Usmonov [12] esa yuqoridagi tadqiqotlardan farqli ravishda tasavvuf ta’limotining Yassaviya tariqatini ijtimoiy-tarixiy negizlari, uning ahloqiy-tarbiyaviy jihatlari, O‘rta Osiyo xalqlari madaniyatining rivojlanishiga ta’siri masalalarini falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qiladi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosan filologik yo‘nalishda bo‘lib, ularda islom madaniyati, Yassaviya ta’limotining ijtimoiy, tarixiy, ko‘proq badiiy ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Xorijiy tadqiqotlar tahlil qilinganda ingliz sharqshunosi J. S. Trimengemning “The sufi orders in islam” nomli kitobida sufiylik jamoalari, tariqatlar va ba’zi tasavvuf allomalari faoliyatini sharhlashga harakat qiladi.[8] Uning tadqiqotlarida sufiylikni paydo bo‘lishidan tortib, Markaziy Osiyoda keng tarqalishigacha bo‘lgan jarayonlarni yoritadi.

V.V.Bartold ham XV asr oxiri XVI asrda Markaziy Osiyoda yuz bergan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni manbalar asosida yoritadi. U B.Ahmedovdan farqli ravishda O‘rta asr tasavvuf Shayxlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rnini ochib berishga harakat qiladi. [2]

Mavzuyimizni asosiy adabiytlariga sirasiga Sadriddin Salim Buxoriy va Safarova Nigora Olimovnalarning ham Karmanalik “Hazrat Mavlono Orif Deggaroniy” hayotiga bag‘ishlangan bir qator risolalarini ham aytish joiz. Ammo ushbu risolalar Orif Deggaroniyning hayoti faoliyati, tarixiy davriyligi hamda geografi joy nom, joylashuvlari haqida ko‘proq urg‘u berib o‘tiladi.

Qolaversa tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lishi va keng tarqalishi, mohiyati hamda ijtimoiy hayotga ta’siri xususida E.Karimov, N.Komilov, B.Do‘stqorayev, I.Haqqulov, B.Valixojayev, B.O‘rinboyev, K.Kattayev, A.Hotamov, Sh.Xalilov, Hamidjon Homidiy, Orif Usmon, Nodirxon Hasaniy, Hoji Ismatulloh Abdulloh, A.Nuriddinov, A.Abdullayev, Sadriddin Salim Buxoriy, E.Zoirov, G.Navro‘zova kabi olimlarning asarlarida o‘z aksini topgan. S.Inoyatov, [7] H.Turayev, M.Saidov, O.Hayitova, A.Kandaxarov [11] kabi olimlarning

tadqiqotlarida esa XVI asrda Buxoro xonligida muhim mavqeiga ega bo'lgan Karmananing ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotiga oid ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Garchi uni o'rganishlarda XVI asrda faoliyat yuritgan ayrim tasavvuf vakillarini ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri ko'rsatib o'tilgan bo'lsada, yuqoridagi manbalarimiz tahlilii Karmanalik shayxlar shaxsining ma'naviy tarbiyaviy jihatlariga alohida to'xtalib o'tilmaganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqsadimiz tasavvuf allomalarimiz meroslarini tahlili ularoq ularning ma'naviy tarbiya borasidagi qarashlarini yosh avlod uchun fundamental axloq namunalari sifatida tanishtirish. Ilm talabida ustoz va shogird munosabatlaridagi ikki namunaning ibratli tomonlari manbalar va tadqiqotlar natijalariga ko'ra yoritildi.

Tahlil va natijalari: Sharqshunos, islom, markaziy yevroosiyoshunoslik va diplomatiya fanlari olimi Karimov Elyor Erkenovich ham bu kabi fikrlarni o'zining bir qator chiqishlarida ham takidlab o'tadi. Yani "Har qanday rasmiy masjid har qanday diniy tizimda qo'riqchilik, ba'zan hatto zo'ravon qo'riqchilik tabiatiga ega. "Namoz o'qimasangiz, – deydi sizga imom, – do'zaxga tushasiz. Ro'za tutmasangiz, do'zaxga tushasiz, shuning uchun islom qonunini buzmag". Tasavvufda, "Yo'q, buni qilishga majbur emassiz", deyiladi. Nega bu ishni qilishingizni tushunib olishingiz shart bo'ladi. Bu ishni ixtiyoriy, Allohga muhabbat bilan qilishingiz kerak. Agar masjid sizni va boshqa qavm a'zolarini qo'rqitib, "bu ishni qilmasang, yomon bo'ladi", deb aytsa, tasavvuf ustozlari, "Shu ishni qil, chunki sen Allohni sevasan", deydi." [5] Bu kabi islomning ma'naviy qiyofasini tanitishga, uning asl mohiyatini ochib berishga sharq, xususan O'rta Osiyolik ko'plab tasavvuf sufiylarining targ'ibotlari sabab islom yanada yangi bir kuchga ega bo'ldi. Bu kabi sufiyona targ'ibotlar diplomatik ustalik esa keying davrlarda ko'plab qon tukilishlarni oldini olgan bo'lsa ham ajabmas. Misol uchun: Buxoro davlati tarixida Abdullaxon II va uning ma'naviy ustozlari, Hazrati Qosim Shayx munosabatlarida ko'rish mumkin bo'ladi.

Tasavvuf darg'alaridan Xoja Yusuf Xamadoniy komil-u makammal zot bo'lsada kamtarona hayot kechirganlar. U kishi maktab ochib bu maktablarda hayoti davomida darslari targ'ibotlari samarasi 8000 budparastni musulmon qilganligi aytiladi. [17:22b] Hamda bularning natijasi ularoq shogirdlari tayyorlaganligi, ular ham o'z navbatida ustozlaridan olgan bilimlarini hayoti davomida islom dinining keng yoyilishi va bu dinning haqiqiy mohiyatini ochib berishda katta rol o'ynaganligiga bugungi tarixi ma'lumotlar guvohlik berib turibdi. Xuddi shunday sufiyon ma'naviy tarbiya ustozlardan O'rta Osiyo diyorida Karman farzandlaridan Mavlono Orif Deggaroniy (1313-1375), Shayx Xudoydod Vali (1461-1532), Qosim Shayx Azizon (1500-1578)larni ham misol qilib aytish mumkin bo'ladi. Islom dinning targ'iboti davomida bu dinning

ma'naviy qiyofasini yaratgan bunday buyuk zotlar nafaqat o'z zamonasiga balki kelajak avlod uchun ham buyuk bir meros qoldirganki, asrlarga tatigulik.

Tasavvufning mashhur tariqat asoschilaridan hisoblangan Bahouddin Naqshbandning (1318-1389) utozi Amir Sayid Kulolning topshirig'iga ko'ra Bahouddin Naqshbandga pirlik qilgan Mavlono Orif Deggaroniy hazratlari umrining asosiy qismini sufiy g'oyalarining targ'iboti bilan tarbiya borasida namuna bo'lib berdi. Mavlono Orif Deggaroniy (1313-1375) hozirgi Navoiy viloyati, Karmana tumani Deggaron qishlog'ida hozirgi Hazora hududida tavallud topadi. "Deggaron" so'zi ikki qismdan iborat bo'lib "Deg" qozon, "garon" og'ir, vazmin degan ma'nolarni anglashini olsak og'ir va vazmin qozon degan manolarni yani qozon yasovchi hunarmandlar istiqomat qilgan joy degan xulosaga kelinadi. Mavlono Orif Deggaroniyning tarjimai xoli xususida ishonchli manbalar qatorida Faxriddin Ali bin Husayn al Voiz Koshifiyning (1463-1532) "Rashohotu aynul hayot" asari ham bo'lib. Unda asosan tariqat peshvolari, avliyo va pirlarning hayoti haqida hikoya qilinadi. Mavlono Orif Deggaroniyning to'g'ilgan Buxoroning shimoli "Buyuk Ipak yo'li"ning bo'yidaligi hamda ushbu davr uchun sanoatlashgan muhim hudud sifatida ko'rish mumkin bo'ladi. Uning yoshlik yillari Bohauddin Qishloqiyning yonlarida hadis ilmi, zohiriy va botiniy ilmlarni o'rganish bilan kamol topadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha bu ilmlarni yoshlikdan Mavlono Orif Deggaroniy Bahouddin Naqshband bilan birgalikda oladi. Sungra Amir Sayid Kuloldantariqatning saboqlarini oladilar. Deggaroniy tasavvufning jahriy zikrdan ko'ra xufya zirrga hayrixoh hayot kechiradi. Degaroniyning ushbu qarashlari misoli Bahouddin Naqshbandning "dil ba yoru, dast ba kor" "ko'ngil xudodabo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin" shiori bilan yug'rilgan bo'lsa ajabmas. Chunki Bahouddin Naqshband yitti yil Mavlono Orif Deggaroniyning qo'l ostida ta'lim oladi. Garchi ular orasidagi yoshning farqi 5-6 yosh bo'lsada Naqshband ham o'z navbatida Deggaroniyni ma'naviy piri sifatida ko'rgan do'stlik hamda ustoz-shogir munosabatlari bilan birgalikda o'ta hurmati yuqori bo'lgan.

Ko'p vaqtlar Mavlono Orif bilan birga Raboti Malik qurilishida ustoz shogird birgalikda mehnat qildilar. Shuningdek ko'plab manbalarda ikki do'st, ustoz-shogird umri davomida ikki marotaba haj amalini oshirganliklari va har ikkala safarlarida ham birgalikda safar qilganliklari ma'lum.

"Hazrat Bahouddin Naqshband aytardilar "Men xufyona zikr bilan mashg'ul bo'lganimda nogoh sirlarga duch keldim. Bu sirning mohiyatini tushunmoq uchun talab vodiysiga qadam urdim. Mavlono Orif bilan o'ttiz yil birga qidirdik. Men ikki bor Xijoz (yani haj) safarida bo'ldim barcha gushalarni kezdim. Kishi bormikin, o'zi tizzama-tizza o'tirsa-yu osmonlarni sayr etsa, zohiri yerda botini osmonda bo'lsa?!" [13] ushbu parchadan shunday taassurot olish

mumkinki ikki tanada yashayotgan bir ruh, haqiqiy ruhiy komolotni yetuklikga intilishlar ifodasiga qiyos qilsa bo'ladi. Hamda bu ikki tariqat peshbosining o'ttiz yil davomidagi izlagan haqiqatlari insoniyatni Haqqa eltuvchi tariqat yo'lini qaror toptirgan bo'lsa ajabmas. Ajib va g'aroyib voqealar boshlaridan o'tar edi. Bu kabi ma'lumotlar ular nafaqat tariqat borasida hamda hayotiy qarashlar doirasida ham hamfikir bo'lganligi xususida xulosa qilinadi. Mavlono Orifning hurmati uchun mulozamat va xizmatni davom ettirar edilar. Shu 7 yil davomida ariq labiga tahorat uchun borsalarda, Mavlonodan yuqorida tahorat olmas edilar. Yo'lda ketayotganlarida ularning qadamlarining izi ustiga oyoqlarini qo'ymas edilar" [1] deb eslaydilar.

Chunki "Amir Sayyid Kulol (Amir Sayyid Kulol (XIII asr oxiri-1370-yillar) Mavlono Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshband ma'naviy piri utozi.) aytgan edilar: "Mening yoronlarim orasida mana shu ikki kishi, ya'ni Xoja Bahouddin va Mavlono Orif Deggaroniyga o'xshagan hech kim yo'q. Bular hammadan o'zib ketdilar".... Xojamiz "Ilm o'rganing, agar u Chinda bo'lsa ham", degan hadisga amal qilib, Amir Sayyid Kulol tarbiyasidan so'ng, yana yetti yil Mavlono Orif Deggaroniyning xizmati va mulozamatida bo'ldilar. Bu haqda tasavvufshunos tarjimon Sadridin Salim Buxoriy (1946-2010) o'zining "Ikki yuz yetmish yetti pir" kitobida: "Maqomati shohi Naqshband"da yozilishicha, - deb ta'kidlaydi, - Hazrat Bahouddin Naqshband, Hazrat Sayid Mir Kuloldan ijozat olgandan so'ng, yetti yil Hazrat Mavlono Orif Deggaroniy xizmatlarida bo'ladilar". Manbadagi Bahouddin Naqshband Amir Kuloldan 7 yil ta'lim olgan degan ma'lumotga asoslansak, 1347 yildan 1354 yilgacha Bahouddin Amir Kuloldan ilm olganlar. 1354 yildan yana 7 yil to 1360 yilgacha Orif Deggaroniy xizmatida bo'lganlar va Qosim Shayxdan ilm olib 1361 yildan o'zlari mustaqil tariqatni tashkil eta boshlaganlar. [6]

Bu kabi sufiylarimizning do'stlik va ustoz shogirdlik kabi munosabatlari bugundi qanchadan qancha ilm talabidagi avlodlarga ustozga hurmat borasida namunasi bo'la oladi. Qolaversa tasavvuf ta'limotida ustoz rizoligiga ilohiy quvvat manbai sifatida qaraladi. Tasavvuf sufiylarning hayoti yo'li mahalliy xalqlarning madaniyatiga aylanib bordi. Ularning ziyo ulashuvchi asosan islomiy diniy ta'limotlarining targ'ibotlari, tushuntirishlari ma'naviy hayotni qaytadan jonlantirib islomlashtirishda katta rol o'ynadi. Mavlono Orif Deggaroniyning ham o'z navbatida yetuk munosib xalifalarni tayyorlaydilar. Ulardan Ali Safiy Mavlono, Amir ashraf va Amir Ixtiyoriddinlardir. Bu haqida Muhammad Tohir Eshon "Tazkirayi Naqishbandiya" asrida shunday deyiladi. "Xazrat Amir Ashraf Buxoriy rahmatullohi alayhning bayonidir. Ul muqtadoiy a'raf (bilimdonroq) va rahnamoyi axlaf, yani hazrati Shayx Amir Ashrafdur. Ayturlarkim, ul sohibi sharaf Mavlono Orifning xalifai avvalidur. Bayt:

Ba'di Orif bidon Amir Ashraf,

Beshaku begumon bishud ashraf.

Mazmuni:

Orif Degaroniydan sung Amir Ashraf,
Shak va shubhasiz ashraf zotlardan bo'ldi.

Chunonchi, "Xazrati mavlono Orifning rihlatidan so'ngra ul azizning ornida qoyim maqom bo'lib, toliblarni Xudo azza va jalaaning yo'lig'a kirgizdi va ul bobda baqadri imkon sa'yin tamom ko'rguzub, odamlarni rost tariyqg'a soldi" [17:42b]

"Mavlono Orif Deggaroniyni shaxsiy sifatlaridan, ul zot avliyolik darajasini uchta xislatlar kamolotida ko'radi.

1. Baland darajaga yetganda ham kamtarlik qilmoq.
2. Qudratu, sabur toqati yetgunicha parxezkorlik qilmoq.
3. To kuchi yetguga qadar insof qilmoqlikdir." [14]

Tasavvufda ustoz, shogird, xalifalik ananalari bilan silsilalar aro tasavvuf ta'limotlarining targ'iboti bordi. Tasavvuf ta'limotida shunday gap bor "Har kim bu yo'lni iroda qilsa va tariqat xirqasini kiyishni xohlasa uni pirning qo'lidan kiysin" Tasavvufni ustozsiz anglab bo'lmasligi bu ta'limotning bosh qoidalaridan. Xuddi shunday manbalarda Mavlono Bahouddin ham do'st, ustoz sifatida Deggaroniyni ham hadis o'rganganlari yozilgan. Naqshbandiya ta'limotining ma'naviy mazmunini boyishida ustoz Mavlono Orif Deggaroniyni ham qarashlari o'z aksini topib boradi. Xulasa qilganda tasavvuf ta'limotida inson o'zi mustaqil qanchalik ko'p o'rganishi, izlanishi bilan bu ilmni to'liq egallab bo'lmasligi, albatta ustozning zarurligi xususida xulosalar beradi. Ayni bu xususiyatlar islom olamida ustoz-shogirdlar silsilasi muqaddas dinimiz targ'iboti yo'lida xizmat qilishiga, taqvo yo'lida noto'g'ri xulosalardan uzoqda tutib, islom dinining ma'naviy qiyofasini saqlab, asrlar davomida o'zining munosib himoya vazifasini bajarib keldi.

Quyi Zarafshon vohasi tasavvuf ta'limotida Mavlono Orif Deggaroniyni va Xoja Bahouddin Naqshbandning o'rni va ahamiyati katta. Bu ikki ustozshogird, ikki do'st birgalikda o'qidilar, bir ustozdan ta'lim oldilar, bir ijtimoiy zamonda faoliyat yuritdilar. Movarounnahrning bir purhikmat makoni – Quyi Zarafshon zaminida umrguzaronlik qildilar va turlicha kishilik jamiyatlarining guvohi bo'ldilar.

Ta'kidlab o'tish lozimki, Hazrat Mavlono Orif Deggaroniyni (q.s.) buyuk valiy, ulkan alloma, atoqli tarbiyachi bo'lib, Xojagon-Naqshbandiya tariqati rivojiga muhim hissa qo'shgan sohibkaromat zot edilar. Xojagon tariqati Markaziy Osiyodagi diniy-tasavvufiy oqimlardan birining nomi bo'lib, bu oqim turli vaqtlarda XII-XV asrning oxirigacha turli darajadagi so'fiylar jamoasi hisoblangan. Uning asoschisi aslida Abduxoliq Fijduvoniyni bo'lib, u kishidan to Bahouddin Naqshbandgacha meros sifatida o'tib kelgan. Bahouddin Naqshband yashab ijod etgan davrda ham tariqat Xojagon deb atalgan, u kishining vafotidan keyin tariqat Naqshbandiya

deb nomlangan. Demak, Naqshbandiya tariqati o'z g'oyaviy kelib chiqishi jihatidan Xojagon tariqatiga borib taqaladi. Faylasuf olimi N.Safarovning tadqiqotlarida keltirilishicha, Xojagon-Naqshbandiylik yagona silsila sifatida vujudga keldi, chunki Bahouddin Naqshband Abduxoliq G'ijduvoniyni tasavvufiy qarashlarini chuqur o'zlashtirdi. Xojagon ta'limotining naqshbandiya tariqati uchun ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi: inson kamoloti uchun zaruriy bo'lgan qalbni poklash vositalaridan biri zikri xufiyani o'rgatdi. Naqshbandiylik tasavvufning boshqa oqimlari, ayniqsa jahriya, ya'ni baland ovoz bilan zikr qilish yoki samo'-musiqa kuylari ostida zikr aytish usullarini qo'llagan Yassaviylik va boshqalardan xufiya zikri bilan farq qiladi[15]. Xojagon va Naqshbandiya tariqatlarining silsilaviy bog'lanishi, ma'naviy birligi va ushbu tariqatlarning Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalishi va mustahkamlanishida Mavlono Orif Deggaroniyni o'rni beqiyos bo'lgan.

Mavlono Orif o'z shogirdlariga Haq yo'lidan borib, Haqqa yetishish lozimligini anglab turishni buyurgan. Mavlono Orif Deggaroni va Bahouddin Naqshbandiylarning dunyoqarashi botinan (ichdan) Xudo bilan, zohiran (tashqaridan) odamlar bilan bo'lish kerakligiga asoslangan. Ularning aqidasi ko'ra, "Dil ba yoru dast ba kor" (qalb Olloh bilan, qo'l esa mehnatdan ajralmasligi kerak). Zotan, mehnat mashaqqatsiz iste'mol qilingan rizq va narsa haromdir. Ushbu naqllarni Mavlono Orif har bir mashvaratda, shogirdlar, muridlar davrasida takrorlab turgan. Naqshbandiya tariqati pirlarining, ayniqsa, Mavlono Orif Deggaroni faoliyatida asosiy o'rinni egallagan komillik sifatlarining, sirlarining "hadiqai xirad", ya'ni aql ko'zqorachig'iga tinimsiz fayz bag'ishlashini unutmaslik, komillik sifati fazilatlarini egallashga da'vat etiladi.

Mavlono Orif Deggaroni ham tasavvuf yo'lida yuksak maqomga erishdilar va ularning xulq odoblari hammaga namuna, xikmatlari esa bugungi yoshlarga ibratdir. Tasavvuf ta'limotining ikki ulug' kamarbastasi – Mavlono Orif Deggaroni va Xoja Bahouddin Naqshbandlar Movarounnahrning o'sha tahlakali, qattol zamoni uchun o'ta zarur bo'lgan shunday ma'naviy quyosh yaratdilar, u hamon insonlar qalbini yoritib kelmoqda. Bu Mavlono Orif Deggaroniyni Quyi Zarafshon vohasi tarixidagi, ma'naviy muhitidagi salohiyatidan darak berib turibdi.

Manbalardagi naqllar bilan tanishar ekanmiz, Mavlono Orif Deggaroniyni yuksak ma'naviy xislatlar sohibi ekanligi, adolat, insof, diyonat tarafdori bo'lganliklari, shuhratparastlik, manmanlikni qoralaganliklarining guvohi bo'lamiz. Aytar edilarki, "Taom iste'mol qilayotgan paytda har bir a'zo bir ish bilan band bo'lur. Dil ham bu paytda zikr bilan mashg'ul bo'lur. Lekin bu vaqtda dil "Alloh" yoki "La ilaha illalloh" zikrini emas, balki dasturxondagi ne'matni beruvchi Alloh taoloni mushohada etur. Dil sababdan musabbibga kelur. Allohning Razzoqligini mushohada etur. Mana shu holat zikr hisoblanadi. SHundaylar ham borki, o'ng qo'li bilan taom

yeydi, chap qo'li bilan tasbeh o'giradi. Bu ish manmanlik, kibr, shuhratparastlik, firibgarlik hisoblanadi". Orif Deggaroniy inson taom tanovul qilar ekan, bergan rizqi uchun Allohga shukronaaytishga chaqiradilar. U kishi insonlarni halol mehnat bilan rizq topishga undaganlar va o'zlari ham ziroatchilik bilan shug'ullanganlar.

Bahouddin Amir Kuloldan keyin yetti yil uning to'rtinchi xalifasi bo'lgan Mavlono Orif Deggaroniyning xizmati va mulozamatida bo'ldi. Bu mulozamatda xilma-xil riyozatu jiddu jahdni o'z bo'yinlariga oldi. Ko'p vaqlar Mavlono Orif bilan birga Raboti Malik qurilishida mardikorlik qildilar [10].

Mavlono Orif Deggaroniyning quyidagi hikmatlari "Rashahot" kitobida berilgan: "Mavlono Orif menga aytdilar: "Agar yukimni ko'tarsin desang, yukingni ko'targuvchi do'st topmoq hayotda dushvordir. Va agar yukini ko'tarishni istasang, butun jahondagilar senga do'st bo'lg'ay".

Xo'sh, Mavlono Orif "yuk" deganda nimani nazarda tutganlar? Bu qanday "yuk"ki qashshoq, bevabechora, musibatli, dardmand kishilarga hamdardlik izhor qilish kabi insoniy fazilatlardan tortib, to elu yurt, xalq va din yo'lida fidoyi bo'lmoqni anglatadi? Mavlono demoqchilarki, senda birovning dardiga sherik bo'lish, o'zgalarning og'irini yengil etish uchun rag'bat xolisonlilloh, beta'ma xizmat qilish fazilati bo'lsa, butun bani bashar senga do'st. Bu dunyoda bandaning boshiga tushishi mumkin bo'lgan "yuk" xilmaxil bo'lib, jazm qilgan javonmard boshqa birovning "yuk"ini ko'tarishga qodir ekan. Darhaqiqat, kasalga hamdardlik bildirib, uni bu "yuk"dan qutqarsa bo'ladi. Muhtojga molu davlat bersang, uning "yuk"i engillashadi, muhtojlik azobidan qutuladi. Jon xatarda qolganda ham haqiqiy mardlar o'zgalari uchun jonini fido qilib, do'st hayotini saqlab qoladi. Lekin yana bir "yuk" borki, uni bandaning boshidan ko'tarishga hech kim qodir emas. Bu gunohkorlik "yuk"i! Ushbu dunyoda qilingan gunohlar "yuk"i bandaning yelkasida Qiyomatgacha turadi. Tariqat pirlari, xususan, Mavlono Orif Deggaroniy ham payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ning izdoshlari bo'lgan. Bu zot ham o'zgalarning "yuk"ini ko'tarib yashadilar. Odamlarni to'g'ri yo'lga boshladilar, tariqatu shariat rivojiga muhim hissa qo'shdilar.

Xojagon tariqatining yirik namoyandasi Mavlonodek valiyilar inson qalbining muhabbat urug'i hisoblanadi. Hazrat Bahouddinning quyidagi hikmatlariga e'tibor beraylik: "Suhbatimizga kelganlarning ba'zilarining qalbida muhabbat urug'i bor, lekin u urug'ning gurkirab o'sishiga halaqit beruvchi xasxashaklar mavjud (kibr, hasad, baxillik, nifoq, g'urur). Bizning vazifamiz ularning qalblarini xasu xashakdan pokizalashdir. Lekin ba'zi suhbatga kelganlarning qalbida muhabbat urug'i umuman yo'q. Biz ularning qalbiga muhabbat urug'ini sepamiz".

Naql qiladilarki, Hazrat Amir Kulol o'z ashobalari, jumladan, Mavlono Orif Deggaroniy, Bahouddin Naqshband va boshqalar bilan birga Buxorodagi jome' masjidi tomon borayotgan edilar. Bir kimsa yo'l yoqasidagi dalasida o'z g'ulomi bilan birga dehqonchilik qilayotgan edi. SHunda g'ulom o'z xojasidan so'radi: "Bu o'tib ketayotganlar kimlar?" Xoja dedi: "Bular narzxo'rlardur!" bu gapdan voqif bo'lgan Hazrat Amir Kulol muridlariga dedilar: "Ey yoronlar! Bizning ulug' xojamiz Hazrat Abduholiq G'ijduvoniy alayhir rahma aytar edilarki, kimki darvishlarga haqorat nazari bilan qarasa, to gargin(og'ir teri kasalligi) dardiga chalinmaguncha dunyodan o'tmas". Ashobalar bu gapdan g'oyat mutassir bo'ldilar. Hazrat Amir Kulol barcha muridlari, jumladan, Mavlono Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshbandga qarata quyidagi nasihatni aytdilar: "Ey yoronlar! Ixlos eting – xalos bo'lasiz, Olloh g'azabidan qo'rqing – najot topasiz. Va yana bilingki, barcha toatning tagida tavba turadi. Va tavba uldurki, qilgan gunohingiz uchun dildan pushaymon bo'lmoq va qayta bu gunohni takrorlamaslikka ahd qilmoqdir. Va yana kasb-hunar bilan tirikchiligingizni o'tkazib, halol kasb orqali ro'zg'oringizga yetgulik miqdorida lofu isrof darajasiga yetkazmasdan rizq-ro'z topishga harakat qilmog'ingiz lozim. Va shul jamg'armangizdan kambag'allarga nafaqa beringki, bunda ham isrofgarchilik, yohud baxillik etmang. O'rta yo'lni tuting" [16].

Ushbu jumalarni tahlilidan shuni anglashimiz mumkinki, tasavvuf tariqatlari vakillari jamiyatda xalollik va insof, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik va sadaqa berish borasida namuna bo'lishga harakat qilishgan hamda atrofdagilarni ham shunga da'vat etib, ma'naviy-ruhiy poklikni targ'ib etib borishgan. Bu esa o'z davrida va bugungi kunlarimizda ham insonlarni ma'naviy komil inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Xulosalrimiz shuni ma'lum qiladiki O'rta Osiyo xalqlari hayotiga islom dinini olib kirgan, mahalliy aholi ongiga integratsiya jarayonlarida faollar tasavvufning sufiy ustozlari va ularning xalifaiy silsilalarining hissasi ko'pdir. Ayniqsa ushbu ta'limotni ma'naviy rivoji ham ushbu tariqat vakillarining shaxsiy namunalari bilan butun bir jamiyatni o'z ortidan ergashtirilgan zotlardir.

Tariqatchi sufiylarning harakati hamda ular qoldirgan ma'naviy meroslari samarasi ularoq islomlashish jarayoni hozirga qadar bu muqaddas e'tiqodimizning ramziy ma'noda himoyasini ta'minlab kelmoqda desak ham adashmagan bo'lamiz. Bu kabi ustoz-shogirdlik ananalarini ko'plab alomalarimiz misolida davom etirishimiz mumkin bo'ladi.

Orif Deggaroniy va uning safdoshi Xoja Bahouddin Naqshband, Movarounnahrning ijtimoiy-ma'naviy muhitini yaxshilashda katta hissa qo'shgan tariqat asoschilaridir. Ular, tasavvuf ta'limotini shariat ilmlari bilan uyg'unlashtirgan va Vatan ozodligi uchun mafkura

sifatida namoyon qilgan. Deggaroniy, oddiy mehnatkash insonlar hayotida sharqona tavoze bilan ishlashni targ'ib qilgan va bu orqali tasavvuf falsafasining yuksalishiga hissa qo'shgan

Mavloni Orif Deggaroniy, insonlarning ruhiy kamolotini yuksak darajaga ko'tarishda va halol mehnat orqali rizq topishga undagan. U, ziroatchilik bilan shug'ullangan va insonlarni Allohga shukrona aytishga chaqirgan. Orif Deggaroniy, shaxsiy kamolotga erishish yo'lida bilimni ulug'lagan va ilmni eng yuksak ma'naviy xazina deb bilgan.

Ular islomni ma'naviyat va ma'rifat ko'rinishida mahaliy aholiga qabullantirdi. Shunday ekan biz shukronalarimiz orasida asl Haqni tanitgan usha tasavvuf allomalaridan minador o'tishligimiz kerak bo'ladi. Biz ularni Karmanalik ikki do'st Mavloni Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshbandlar misolida ko'rib chiqdik.

Qolaversa bugungi XXI asr dunyoda insoniyatning ilm-fan sohalarida erishayotgan yutuqlarini insoniyatga manfaatli bir tarzda xizmat qilishida, tasavvuf g'oyalari fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki har bir harakat zamirida insoning ma'naviy va axloqiy kamoloti yotadi. Ma'naviy va axloqiy kamol topgan avlod qo'lidagi har qanday ilm fan, texnologiya ezgulik yo'lida, manfaatli bir bilimga aylanadi. Buning uchun bu kabi allomalar merosini o'rganishda mediyada va har qanday ma'lumot beruvchi manbalarda ham tasavvuf g'oyalarini yoshlar ongiga psixologik yondoshuvlarni hisobga olgan holda ta'sirchan dizaynlarini, qiyofalarini ham yaratish, muntazam targ'ibotini olib borish zarur bo'ladi.

Tasavvufning o'ta diplomatik davlatlar bugungi kungacha yuz bergan qanchadan-qancha ekstrimal, ekstrimistik xatolarni ham to'g'rlashda, yo'l qo'ymaslikda dasturul amal sifatida ham ko'rish mumkin bo'ladi. Bunday muhim vazifani O'rta Osiyolik allomalarimiz pirlar, murid va murshidlar, ustoz-shogirdlik an'analari bilan uddasidan chiqishganligi misolida ham ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Abul Muhsin Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon.– T.: “Yozuvchi”. 1993. – B. 49–50.
- [2] Bartold V.V. Sochineniya. Raboti po otdelnim problemam istorii Sredney Azii. Chast II. –Moskva. Nauka, 1964. – 560 st.
- [3] Fitrat. Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar. Tanlangan asarlar. – II jild. Ilmiy asarlar. T.: Ma'naviyat, 2000. – B.38.
- [4] Hotamov A., Bekniyozov N. Karmana qadimiy diyor. T.: O'zbekiston, 2007. -152 B.
- [5] <https://www.uzanalytics.com/tarix/10360/>
- [6] Haydarxo'ja Y. Bahouddin Naqshband Toshkent «Sano-standart» 2019,. 12-bet.

- [7] Inoyatov S., Hayitova O. Karmana tarix ko‘zgusida. T.: Sharq, 2006. – 192 B.; Karmana shahrining Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida tutgan o‘rni. Tarix fan. nom. Diss....-T.:2003. – 140 B.
- [8] J.Spencer Trimingham. The sufi orders in islam. Oxford at the Clarendon press. 1971. – P. 359.
- [9] Mustafoev S. Karmana azizlari. T.: Muharrir, 2010. -176 B.; Uning o‘zi: Qosim Shayx Azizon.T.: Sano-standart, 2013. -48 B.
- [10] Navro‘zova G. Xoja Bahouddin Naqshband hayoti va ma’naviy merosi. T.: Fan, 2012. –B. 70.
- [11] Qanaxarov A. “Karmana shahrining Buxoro xonligi ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotida tutgan o‘rni.” Tarix fan. nom. Diss....-T.:2003. – 140 B.
- [12] Rustamov E. Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi // O‘zbek tili va adabiyoti. – T.: 1972, №4-5.; Usmonov M.A. Osnovniye etapi evolyutsii islama // avtoref. Diss....d.filos.n. Movkva 1978. -23 st.
- [13] Sadridin S.B, Azimov S. Hazrat Mavlono Orif Deggaroniy. Buxoro nashriyoti.2008., 6-14-bet.
- [14] Xoja Orif Ar Revgariyb “OrifnomaEb T. “Navruz” nashriotib 1994 yilb 7-bet.
- [15] Safarova N. Xojagon tasavvufiy ta’limotida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar masalasi. Dissertatsiya, fal.fan.nomzodi. Toshkent, 2002. –B.132.
- [16] Sadridin Salim Buxoriy. Hazrat Mavlono Orif Deggaroniy. Buxoro, 2008. –B.21.
- [17] Xamidxon Islomiy, Mahmudxon Hasaniy Mavlono Orif Deggaroniy Falsafa va huquq nashriyoti Toshkent-2007 42-bet.